



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 230 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil.....	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish.....	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxomjon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari.....	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqtirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati.....	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarining ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'riqan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	
Talaba-yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari	156
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna</i>	
Yosh oilalarda ajralishlarni bartaraf etishning pedagogik mexanizmlarini aksiologik yondashuv asosida takomillashtirish	160
<i>Normurodova Gulnora Ikromovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari	164
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	
Psixologik zo'ravonlikning o'smirlarda destruktiv xulq shakllanishiga ta'siri	168
<i>Jurakulova Dildora Ziyadullayevna</i>	
Maktab maslahatchilarining boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	172
<i>Kazakova Saxiba Abdurayimovna</i>	
Kichik maktab yoshi o'quvchilarida ongli intizomni tarbiyalashning samarali usullari.....	178
<i>Ziyayev Adxamjon</i>	
Lingvokulturologiyada konsept tushunchasining nazariy talqini	182
<i>Jo'rayeva Nozima Nozim qizi</i>	
Sport takomillashuvi bosqichida voleybolchilarning sakrash qobiliyatini rivojlantirish texnologiyasi	185
<i>Shaimardanov Sherbek Abdurashid o'g'li</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	189
<i>Teshaboyeva Feruza Raximovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga oilaning katta avlodi va ularning ta'siri.....	192
<i>Ashirova Sojida Baxromovna</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida o'qitishning tarixiy pedagogik ildizlari	196
<i>Bekmuratova Shoxida Ne'matjonovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Talabalarda yozuv kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	200
Jabborova Salomat Abdijalilovna	
Integrativ o'qitish asosida bo'lajak logopedlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni.....	204
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
6-7 yoshli bolalarda mehnatsevarlik xislatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish	208
Kasimova Dilrabo Baxadirovna, Omonxonova Muzayamxon Sarvar qizi	
Bo'lajak surdopedagoglarni koxlear implantli bolalar bilan ishlashga tayyorlashda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish texnologiyasi	213
Raximova Xurshidaxon Sadikovna	
Yevropa muhandislik ta'limi tajribasi asosida texnika yo'nalishlari talabalarida texnik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	217
Xalikova Nargiza Abduvaliyevna	
Tilning obrazli kuchi: perifrastalar turlari va xususiyatlari	221
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	224
Zayirkulova Nozima Ilyas qizi	

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI BILAN ISHLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Zayirkulova Nozima Ilyas qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Pedagogika, psixologiya va boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0006-5709-2921>

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda boshlang'ich ta'lim yoshidagi o'quvchilarning individual rivojlanish ehtiyojlari, psixologik holati, o'quv faoliyatiga moslashuvi hamda alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi va maktab psixologining hamkorligi hamda individual va differensial yondashuvni qo'llash zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijalari inklyuziv muhitda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o'quv motivatsiyasi va psixologik farovonligini ta'minlashda pedagogik hamda psixologik omillarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Maqolada ilgari surilgan xulosalar boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni samarali tashkil etish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, boshlang'ich sinf o'quvchilari, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, alohida ta'limga ehtiyoj, individual yondashuv, differensial ta'lim, ijtimoiy moslashuv, o'quv motivatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the pedagogical and psychological features of working with primary school students in inclusive education. The study highlights the individual developmental needs of primary school students, their psychological state, adaptation to educational activities, and the importance of pedagogical approaches in working with children with special educational needs. The need for cooperation between a teacher and a school psychologist in the process of inclusive education and the use of an individual and differentiated approach are scientifically substantiated. The results of the study show that pedagogical and psychological factors play an important role in ensuring students' social adaptation, learning motivation, and psychological well-being in an inclusive environment. The conclusions presented in the article are of scientific and practical importance for the effective organization of an inclusive approach in the primary education system.

Key words: inclusive education, primary school students, pedagogical characteristics, psychological characteristics, special educational needs, individual approach, differentiated education, social adaptation, learning motivation.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические и психологические особенности работы с учащимися начальной школы в условиях инклюзивного образования. В исследовании освещаются индивидуальные потребности развития учащихся начальной школы, их психологическое состояние, адаптация к учебной деятельности, а также важность педагогических подходов в работе с детьми с особыми образовательными потребностями. Научно обоснована необходимость сотрудничества учителя и школьного психолога в процессе инклюзивного образования, а также необходимость использования индивидуального и дифференцированного подхода. Результаты исследования показывают, что педагогические и психологические факторы играют важную роль в обеспечении социальной адаптации, мотивации к обучению и психологического благополучия учащихся в инклюзивной среде. Выводы, представленные в статье, имеют научное и практическое значение для эффективной организации инклюзивного подхода в системе начального образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, учащиеся начальной школы, педагогические характеристики, психологические характеристики, особые образовательные потребности, индивидуальный подход, дифференцированное образование, социальная адаптация, мотивация к обучению.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim g'oyalarining jadal rivojlanishi boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar bilan ishlashda yangi pedagogik va psixologik yondashuvlarni talab etmoqda. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi har bir bolaning individual imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda teng ta'lim imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshi bolalarning bilish jarayonlari, shaxsiy sifatleri va ijtimoiy xulq-atvori faol shakllanadigan muhim davr bo'lib, mazkur bosqichda inklyuziv



uziv yondashuvni samarali tashkil etish ta'lim sifatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlarining idrok, diqqat, xotira, tafakkur, emotsional holat va o'quv motivatsiyasi jihatidan sezilarli individual farqlarga ega bo'ladilar. Ushbu farqlar inklyuziv ta'lim sharoitida yanada yaqqol namoyon bo'lib, o'qituvchidan differensial va individual yondashuvni talab etadi. Xususan, alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash jarayonida nafaqat pedagogik, balki psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ham to'g'ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

Rivojlanishning ijtimoiy-madaniy nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni va kattalar bilan o'zaro muloqot jarayonida shakllanadi. Bu jihatdan inklyuziv ta'lim muhiti bolaning yaqin rivojlanish zonasini kengaytirishga, uning o'quv faoliyatidagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Jumladan, Lev Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan g'oyalari inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik yordam va psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi xalqaro miqyosda ham e'tirof etilgan bo'lib, u ta'lim tizimining barcha ishtirokchilaridan – o'qituvchi, psixolog, ota-ona va ta'lim muassasasidan uzviy hamkorlikni talab etadi. Xalqaro hujjatlarda inklyuziv ta'lim bolalarning ijtimoiy moslashuvi, psixologik farovonligi va o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda pedagogik strategiyalarni psixologik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish zarurati dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv muhitni samarali tashkil etish o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi, psixologik savodxonligi hamda o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatiga bevosita bog'liqdir.

Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar bilan ishlashda pedagogik jarayonni moslashtirish, qulay psixologik muhit yaratish va ijobiy emotsional holatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish ta'lim amaliyoti uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida namoyon bo'ladigan pedagogik va psixologik xususiyatlar tahlil qilinib, ularni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalariga e'tibor qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, inklyuziv pedagogika hamda rivojlanish psixologiyasining asosiy tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining individual rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olish, pedagogik jarayonni moslashtirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni nazarda tutadi. Tadqiqot dizayni tavsifiy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda pedagogik hamda psixologik holatlarni aniqlash, tavsiflash va tahlil qilish asosiy maqsad etib belgilandi. Tadqiqot Sirdaryo viloyati hamda Toshkent viloyatidagi umumta'lim maktablarining inklyuziv ta'lim joriy etilgan boshlang'ich sinflari bazasida amalga oshirildi. Tanlanmaga 1-4-sinf o'quvchilari jalb etilib, ularning yosh xususiyatlari, ta'lim sharoitlari va o'quv jarayonidagi ishtiroki hisobga olindi. Tanlanmaning hududiy hamda sinf darajalari bo'yicha qamrab olinishi olingan natijalarning obyektivligi va umumlashtirilishini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik diagnostika, psixologik kuzatuv, suhbat va hujjatlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik diagnostika orqali o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi, individual rivojlanish darajasi hamda alohida ta'limga ehtiyoj belgilari aniqlashga e'tibor qarotildi. Psixologik kuzatuv metodi o'quvchilarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi, sinf jamoasidagi o'zaro munosabatlari hamda pedagogik ta'sirlarga bo'lgan munosabatini aniqlash imkonini berdi. Suhbat metodi o'qituvchilar va maktab psixologlari bilan olib borilib, inklyuziv ta'lim sharoitida yuzaga kelayotgan pedagogik hamda psixologik muammolarni aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqotda inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik xususiyatlarni aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan mezonlar hamda ko'rsatkichlar tizimi qo'llanildi. Ushbu mezonlar o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faolligi, o'zlashtirish darajasi, ijtimoiy moslashuvi, emotsional barqarorligi hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojini qamrab oldi. Mazkur ko'rsatkichlar inklyuziv ta'lim jarayonida pedagogik hamda psixologik omillarning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

Olingan empirik ma'lumotlar tavsifiy statistik tahlil asosida qayta ishlanib, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar (son va foizlar) orqali umumlashtirildi. Statistik tahlil sinflar hamda guruhlar kesimida amalga oshirilib, pedagogik va psixologik xususiyatlarning tarqalishi hamda umumiy tendensiyalari aniqlandi. Ushbu yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda mavjud holatni ilmiy asosda baholash imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida etik tamoyillarga qat'iy rioya qilindi. O'quvchilar bilan olib borilgan diagnostika va kuzatuv ishlari ularning psixologik holatiga zarar yetkazmagan holda, ixtiyoriylik hamda maxfiylik tamoyillari asosida amalga oshirildi. Olingan ma'lumotlar faqat ilmiy tadqiqot maqsadlarida qo'llanilib, shaxsiy ma'lumot-

larning himoyasi ta'minlandi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuv inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik hamda psixologik xususiyatlarini kompleks o'rganish, ularni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur metodik po'ydevorni yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari tavsifiy statistik tahlil asosida o'rganildi. Olingan empirik ma'lumotlar o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi, ijtimoiy-psixologik holati hamda pedagogik qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlari kesimida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, inklyuziv ta'lim joriy etilgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlari sezilarli darajada farqlanishi aniqlandi. Jumladan, 1-sinf o'quvchilari orasida o'quv faoliyatiga moslashuv jarayonida qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar ulushi yuqori ekanligi kuzatildi. Bu holat boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida o'quv muhitiga moslashuv, yangi ijtimoiy rollarni egallash hamda o'quv faoliyatiga o'tish jarayonlarining murakkabligi bilan izohlanadi.

Psixologik kuzatuv natijalari o'quvchilarning emotsional holati va ijtimoiy moslashuvi inklyuziv ta'lim sharoitida muhim ko'rsatkichlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Alohida ta'limga ehtiyoji mavjud bo'lgan o'quvchilarda emotsional beqarorlik, tashabbusning pastligi hamda sinf jamoasiga qo'shilishda muayyan qiyinchiliklar aniqlangan bo'lsa-da, pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash kuchaytirilgan sinflarda bu ko'rsatkichlarning ijobiy tomonga o'zgarishi qayd etildi. Pedagogik diagnostika natijalari o'qituvchining individual va differensial yondashuvni qo'llashi o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Inklyuziv muhitda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi pedagogik yordamning tizimliliigi va psixologik qulay muhit yaratilishiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, o'qituvchi va maktab psixologi o'rtasidagi hamkorlik samarali tashkil etilgan hollarda o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatildi. Tavsifiy statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik xususiyatlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni kompleks tarzda hisobga olish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O'quvchilarning emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi yuqori bo'lgan sinflarda o'quv faoliyatidagi faollik hamda o'zlashtirish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqladi. Olingan empirik ma'lumotlar pedagogik qo'llab-quvvatlash va psixologik yordamning tizimli tashkil etilishi inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi hamda keyingi ilmiy tahlillar uchun mustahkam empirik asos yaratdi.

1-jadval: Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi

Sinf	O'quvchilar soni	Yaxshi moslashgan	Qisman moslashgan	Moslashuvda qiyinchilik
1-sinf	52	18 (34,6%)	21 (40,4%)	13 (25,0%)
2-sinf	49	20 (40,8%)	19 (38,8%)	10 (20,4%)
3-sinf	56	27 (48,2%)	20 (35,7%)	9 (16,1%)
4-sinf	54	29 (53,7%)	18 (33,3%)	7 (13,0%)

1-jadvalda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi sinflar kesimida ko'rsatilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1-sinf o'quvchilarida moslashuvda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar ulushi nisbatan yuqori. Yuqori sinflarga o'tilgan sari yaxshi moslashgan o'quvchilar ulushining oshishi kuzatiladi, bu esa o'quvchilarning psixologik barqarorlashuvi va inklyuziv muhitga moslashuvi bilan izohlanadi.

2-jadval: Alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning psixologik holati (kuzatuv natijalari asosida)

Ko'rsatkichlar	Yuqori daraja	O'rtacha daraja	Past daraja
Emotsional barqarorlik	22 (33,3%)	28 (42,4%)	16 (24,3%)
Ijtimoiy moslashuv	25 (37,9%)	27 (40,9%)	14 (21,2%)
O'quv motivatsiyasi	20 (30,3%)	31 (47,0%)	15 (22,7%)

2-jadval alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning asosiy psixologik ko'rsatkichlari bo'yicha taqsimotini aks ettiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning katta qismida psixologik ko'rsatkichlar o'rtacha darajada namoyon bo'lgan. Bu holat pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.



Mazkur tadqiqotda olingan natijalar inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlari jadval ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. 1-jadval ma'lumotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi sinflar kesimida bir xil emasligini ko'rsatdi. Xususan, 1-sinf o'quvchilarida moslashuvda qiyinchilikka duch kelayotgan bolalar ulushining yuqoriligi boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida o'quvchilarning yangi ta'lim muhitiga kirish jarayoni murakkab kechishini tasdiqlaydi. Bu holat psixologik jihatdan bolalarning emotsional beqarorligi hamda ijtimoiy tajribaning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi. 1-jadval natijalariga ko'ra, yuqori sinflarga o'tilgan sari yaxshi moslashgan o'quvchilar ulushi izchil ortib borgan. Ushbu tendensiya inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik jarayonning tizimli tashkil etilishi o'quvchilarning psixologik barqarorlashuvi va o'quv faoliyatiga moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 3-4-sinf o'quvchilarida moslashuv darajasining barqarorlashgani pedagogik qo'llab-quvvatlashning samaradorligini tasdiqlovchi muhim empirik dalil hisoblanadi.

2-jadvalda aks ettirilgan psixologik ko'rsatkichlar tahlili alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va o'quv motivatsiyasi o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarda o'quv motivatsiyasining ham sustligi kuzatilishi pedagogik va psixologik yondashuvlarni kompleks qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Bu holat inklyuziv ta'limda faqat didaktik yondashuv yetarli emasligini, balki psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ham kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi. Shuningdek, 2-jadval ma'lumotlari o'quvchilarning aksariyatida psixologik ko'rsatkichlar o'rtacha darajada ekanligini aniqladi. Bu esa inklyuziv ta'lim muhiti umumiy ijobiy psixologik fonni yaratishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Biroq o'rtacha daraja uzoq muddatli rivojlanish uchun yetarli bo'lmashligi mumkinligi sababli pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlashni individuallashtirish zarurati yuzaga keladi. Umuman olganda, jadval natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. O'quv faoliyatiga moslashuv darajasi va psixologik ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim amaliyotida pedagogik diagnostika hamda psixologik kuzatuv natijalariga tayangan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayoni murakkab pedagogik va psixologik omillarning o'zaro uyg'unlashuviga asoslanishini ilmiy jihatdan tasdiqladi. O'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuv darajasi va psixologik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan empirik ma'lumotlar inklyuziv ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan pedagogik yondashuvlarning psixologik qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda tashkil etilishiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, boshlang'ich ta'limning dastlabki bosqichida, xususan 1-sinfda, o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvi nisbatan qiyin kechadi. Ushbu holat bolalarning yangi ta'lim muhiti, o'quv faoliyati talablari va ijtimoiy munosabatlarga moslashish jarayonida psixologik yordamga bo'lgan ehtiyoji yuqori ekanligini anglatadi. Yuqori sinflarga o'tilgan sari moslashuv darajasining izchil yaxshilanishi esa inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik jarayonning tizimli va uzluksiz tashkil etilishi o'quvchilarning psixologik barqarorlashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Psixologik ko'rsatkichlar tahlili alohida ta'limga ehtiyoji bor o'quvchilarda emotsional holat, ijtimoiy moslashuv va o'quv motivatsiyasi o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Emotsional barqarorlik darajasi past bo'lgan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishning susayishi va moslashuvdagi qiyinchiliklarning kuchayishi inklyuziv ta'lim jarayonida psixologik omillarni e'tiborsiz qoldirish mumkin emasligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Shu bois, inklyuziv muhitda pedagogik yondashuvlar psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda individual va differensial yondashuvning muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Pedagogik diagnostika va psixologik kuzatuv natijalariga tayangan holda ta'lim jarayonini rejalashtirish o'quvchilarning o'quv faoliyatiga moslashuvini yengillashtiradi, ijtimoiy moslashuvini kuchaytiradi hamda o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa inklyuziv ta'limning asosiy maqsadlariga erishishda muhim shart hisoblanadi. Umuman olganda, mazkur tadqiqot inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda yoritib berdi hamda ta'lim amaliyoti uchun muhim xulosalarni ilgari surdi. Olingan natijalar boshlang'ich ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvni takomillashtirish, pedagoglar va maktab psixologlari faoliyatini uyg'unlashtirish hamda o'quvchilarning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Triviño-Amigo N., Mendoza-Muñoz D.M., Mayordomo-Pinilla N., Barrios-Fernández S., Contreras-Barraza N., Gil-Marín M., Castillo D., Galán-Arroyo C., Jorge J. Inclusive Education in Primary and Secondary School: Perception of Teacher Training // *Int. J. Environ. Res. Public Health*. – 2022. – Vol. 19(23), Article 15451. – doi:10.3390/ijerph192315451.
2. Jumriah J., Fauziah P.Y. Implementation of Inclusive Education for Children with Disabilities in Mongisidi 1 Primary School // *JPI (Jurnal Pendidikan Inklusi)*. – 2024. – Vol. 8, № 2. – P. 143–155. – doi:10.26740/inklusi.v8n2.p143-155.
3. Çibukçiu B. The Relationship Between Constructivist Approach and Inclusive Education in Primary School // *Frontiers in Education*. – 2025. – Article 1600711. – doi:10.3389/educ.2025.1600711.
4. Deroncelle-Acosta A. Overcoming Challenges and Promoting Positive Education in Inclusive Schools: A Holistic Framework // *Education Sciences*. – 2024. – Vol. 14(11), Article 1169. – doi:10.3390/educsci14111169.
5. Masongsong J.M., Lopres J.R., Aguirre M.M., Lopres G.M., Enriquez D.B., Niadas G.Y., Virtusio J.D. Level of Teachers' Training in Inclusive Education and Their Sense of Efficacy // *Int. J. Science and Management Studies*. – 2023. – Vol. 6(5). – P. 70–87.
6. Кантор В.З., Проект Ю.Л., Кондракова И.Э., Литовченко О.В., Залаутдинова С.Е. Практика инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья: реалии компетентностного обеспечения // *Интеграция образования*. – 2023. – Т. 27, № 1. – С. 82–99. – doi:10.15507/1991-9468.110.027.202301.082-099.
7. Измайлова Л.С. Подготовка педагогов начальной школы к работе с детьми с ограниченными возможностями здоровья в соответствии с нормативными требованиями // *Педагогическое образование*. – 2023.
8. Кантор В.З. Инклюзивные диспозиции и компетенции педагогов общеобразовательных организаций: проблемы взаимосвязи // *Психология и образование*. – 2024. – № 5.
9. Муминова Л.Р., Узакова З.Ф. Опыт Республики Узбекистан в переходе к инклюзивному образованию // *Inclusion in Education*. – 2019.
10. Муминова Л.Р., Нуркелдиева Д.А. Inclusion: Results-oriented education // *Bola va Zamon*. – 2019.
11. Каримова В.М. Педагогическая диагностика: теория и практика. – Тошкент: Fan. – 2020.
12. Муминова Л.Р., Шомахмудова Р.Ш., Ахмедова З.М. Инклюзивное образование (учебное пособие). – Тошкент: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti. – 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.